

## **RAQS SAN'ATI MAKTABLARI.**

### ***To'ymurodova Dinora Otabek qizi***

*Termiz Davlat Universiteti Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi talabasi*

### ***Kamolova Fotima Sayfiddin qiz***

*Termiz Davlat Universiteti Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada raqs san'ati rivoji, yurtimizdagi raqs maktablari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, olib borayotgan faoliyati, kiyimlari, raqs usullari va bugungi kunda raqsga berilayotgan e'tibor xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Raqs san'ati, raqs maktablari, Farg'ona raqs maktabi, Xorazm raqs maktabi, Buxora raqs maktabi, Surxon raqs maktabi, kiyimlar, taqinchoqlar

Har bir san'at sohasi hayotimizni badiiy obraz orqali ifoda etadi. Xonandalar ichidagi tuyg'ularni so'z orqali ifodalab beradilar. Raqs san'ati sohasidagilar esa ijod ruhiyati, his – tuyg'ulari fikrini so'zsiz harakatlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetkazib berishga harakat qilishadi. Raqs san'ati xalqimiz hayotida qadim-qadimdan rivojlanib kelmoqda. Lekin o'tmishda raqs san'ati juda ko'p tahdidlarga uchragan. Ko'plab raqqos va raqqosalarimizning umri yovuz zulumkorlar tomonidan erta so'ndirilgan. Ammo shunga qaramasdan ular o'z faoliyatini to'xtatib qo'yishmagan. O'z kasbining haqiqiy fidoyisi bo'lgan Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Tug'unboyevalar o'zbek raqs maktabiga asos solishgan. Tamaraxonim va Mukarrama Turg'unboyeva ustozlari Usta Olim Komilov ijrosidagi doira usullariga raqs harakatlarini o'ylab topishadi. Respublikamizda 3 ta raqs maktabi bor. Bular Farg'ona raqs maktabi, Xorazm raqs

maktabi, Buxora raqs maktablaridir. Bu maktablar haqida qisqacha fikr yuritib utamiz.

### **Farg'ona raqs maktabi**

Farg'ona raqs maktabi – Farg'ona vodiysida shakllanib kelayotgan raqs san'ati. Qaddi-qomatni erkin tutish, yengil va ifodali yurishlar, puxta ishlangan va aniq ma'noga ega bo'lgan qo'l, bilak, barmoq harakatlari Farg'ona raqsining asosini tashkil etadi. Bu raqsda 1 ta erkin, 7 ta qo'l va 7 ta oyoq holatlari o'rgatiladi. Ushbu holatlar o'zlashtirilganda so'ng 5 qismdan tashkil topgan „Doira dars“ining harakatlari o'rgatiladi. Yigitlarning raqslarida mardonavor harakatlari, aylanishlari, qizlarning raqslarida esa jilvalar yetakchilik qiladi. Farg'ona raqsi asosan maydonlarga mo'ljallangan „Katta o'yin“ va mehmonxonalar va hovlilarda ijro etiladigan „Mayda o'yin“ turkum raqsalaridan tashkil topgan. „Katta o'yin“ raqs vositalari bilan syujet voqealarini aks ettirgan 280 usulni o'z ichiga olgan. Masalan: rez, titratma, shox, gul, o'yin, yo'rg'a, sarbozi, charx, rog, katta, samo, yallama, qaytarma, olmaanor kabi usullar bizgacha yetib kelgan. „Mayda o'yin“ esa yalla va laparlar jo'rligida ijro etiladigan raqslardir. Farg'ona raqqos yigitlari surp va beqasamdan tikilgan yaktak va kamzullar, shoyi sholvorlar, belbog' va do'ppilar, o'tkir uchli maxsus rangdor etiklardan, raqqosa qizlari esa xonatlas, olacha ko'ylaklar, nimchalar, lozimlar, kovush-maxsilar, ro'mollar, durralar, xilma-xil taqinchoqlardan foydalanishadi. Farg'ona raqs maktabini rivojlantirishda Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova, Qunduz Mirkarimova, Dilafro'z Jabborova, Ma'mura Ergashevalarning xizmatlari beqiyosdir.

### **Xorazm raqs maktabi**

Xorazm maktabi – Xorazm vohasida qadim zamonlarda shakllangan va asrlar davomida rivojlanib kelayotgan raqs maktabidir. Xorazm raqsida yigitlarning qo'llari cho'zilgan, tirsaklari ba'zan to'g'ri, ba'zan esa tirsakdan egilgan bo'lib,

barmoqlari yuqoriga, pastga, kaftlari yonga, yuqoriga, pastga qaratiladi. Gavdaning beldan yuqori qismi orqaga tashlanganroq, kuraklar bir – biriga yaqin, tizzalar biroz egik, oyoq uchlari yonga ochilgan bo'ladi. Raqqosa qizlarda rasmiy holatda barmoq uchlari pastga qaratiladi, tirsaklar biroz bukiladi, bilaklariga zang ya'ni mayda qo'ng'iroqchalar taqib o'ynaydilar. Barmoqlarni qarsillatib, g'oz turib o'ynash, gavda qo'ldastalarni titratish, yelka qoqish, cho'kka sakrash, qayroqlarda usul berish ayollar va erkaklar raqsiga birday xosdir. Yigitlar ustiga to'q rangli kamzul, boshlariga chugurma kiyib o'ynaydi. Qizlar esa boshlariga ukki, o'rdak gajagili (bosh kiyimining chap tomoniga, ya'ni yurka tarafga taqiladi. Bu yurakdan chiqqan olov timsolini anglatadi.) bezak, dudorli, popukli, parli taqyatuzi, ko'kraklariga osilgan shavkalalar, quloqlaridagi sirg'alar, bilaklaridagi bilaguzuklari bilan raqsqa tushishadi Xorazm raqs an'alarini rivojlantirishda Qodirbergan Otajonov, Karim Ollaberganov, Qambar bola, Kanarak bola Saidov, Matlatif Saidov, Xudoybergan to'qto'q, Latif Zarifov, Gavhar Matyoqubovalarning xizmatlari kata hisoblanadi. Xorazmda „Lazgi“ning 9 xil usuli mavjud. Bular: „Olov“, „Dutor“, „Qayroq“, „Masxaraboz“, „Garmon“, „Surnay“, „O'g'lon bola“, „Xorazm lazgisi“, „Zamonaviy lazgi“ usullari. Bizgacha yetib kelgan „Chag'aloq“, „Shirinnovvot“, „Norim-norim“, „Xo'bbimboy“, „Aliqambar“, „Mo'ri“, „Orazibon“ o'yinlari ijroosida o'g'lon raqqoslar va masxarabozlar o'zini ko'rsatgan bo'lsa, „Ashshadaroz“, „Maqom ufori“ kabi raqslarda raqqosalar ustunlik qiladi

### **Buxora raqs maktabi**

Buxora raqs maktabi – Buxoroda shakllangan raqs uslubi hisoblanadi. Buxora raqsi qomatni adl tutishi, shiddatli oyoq depsinishi, keskin qo'l harakatlari, panjalarning sho'x aylanishi va barmoqlarning musiqaga mos qarsillatilishi, samimiy tuyg'ularga boy qarashlari, mayda va katta titratmali yelka harakatlari bilan zavq bag'ishlaydi. Gavdaning beldan tepa qismi viqor bilan orqaga tashlanishi buxoro xalqining xarakterini anglatish bilan birga, qo'lning erkin

harakatlanishiga yordam beradi. Ayniqsa, betakror „Buxoracha” hamda „Mavrigi” raqs turkumlari bilan ajralib turadi. „Buxorochoa” raqs asosan xotin – qizlar ijrosida 6-8 ta sozanda, xonanda, raqqosalar tomonidan ijro etiladi. „Mavrigi” esa faqat erkaklar tomonidan doira cholg’usi bilan ijro etiladi. Buxoro raqqos yigitlari kundal, adras, kimxob kabi matolardan keng qilib tikilgan kamzul yoki zardo’zi yaktak, yakrang shoyidan salla o’rab, oyoqlariga poshnali baxmal etik kiyishadi. Raqqosa qizlari esa yoqa, yeng, etaklari zehiga kashta tikilgan keng ko’ylak, oyoqlariga poshnasi baland guldor etik kiyib, boshlariga peshonaband yoki tilla qasava bog’lab, bilaklariga zangila, ko’kraklariga zebigardon va boshqa zeb ziynat taqishadi. „Qayroq ufori”, „Ufor”, „Larzon”, „Ravona”, „Zang” kabi raqs ko’rinishlari mashhur. Hozirgi davrga kelib 4 raqs maktabi sifatida Surxon raqs maktabi qaralmoqda. Surxondaryo viloyati Boysun tumani o’zining milliy raqslari bilan mashhurdir. Bu yerda 1961-yil Madaniyat uyi qoshida ochilgan ashula va raqs ansambili „Shalola” va 1986-yilda tuzilgan „Boysun” folklor – etnografik ansambillari mashhur. „Boysun” ansambili ijodkorlari mustaqillikdan so’ng tog’lik Boysun tumani hududidagi va Surxon vohasidagi marosimlar, qadimiy qo’shiqlar, qadimiy kuy va ohanglar bilan bir qatorda qadimiy raqslarni tiklash yo’lida ham katta jonbozlik ko’rsatdilar. Ular ijodiy safar bilan Afg’oniston, Buyik Britaniya, Turkiya, Fransiya, Rossiya, Qozog’iston, Tojikiston, davlatlarida bo’lib o’zbek folklori san’atini namoyish qildi. Bu ansambilning harakatlari bilan „YUNESKO” tashkiloti ishtirokida Boysun tumanida xalqaro „Boysun bahori” ochiq folklori festivali tashkil etildi. Bu ham Surxon vohasi san’atini o’rganish ishlariga katta turtki bo’ldi. Bugungi kunda yutimizda 17 yoshdan 25 yoshgacha bo’lgan raqs san’ati ustalariga „Nihol” davlat mukofoti beriladi. Mukarrama Turg’unboyeva nomidagi „ Milliy raqs ijrochiligi” nomli ko’rik tanlovlar o’tkazilib kelinmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R. Dosmetova N. Abraykulova „Raqs’’ Toshkent-2017.
2. L. Avdeyeva „O’zbek raqsi tarixidan’’ Toshkent-2001.
3. R. Karimova „O’zbek raqslari’’ Toshkent-2003.